
Buvaydalik hojilar ham muborak Haj safaridan qaytdilar

Muqaddas amalni bajarib ona yurtga yorug' yuz va yuksak maqom bilan qaytgan hojilarimizni kutib olish marosimi Buvayda tumanida ham munosib tashkil etildi.

Bugun tuman hokimligi, tuman faollari va boshqa bir qancha kutib oluvchilar ishtirokida 89 nafar ziyoratchilarimiz tuman hokimligida kutib olindi.

Hojilarning ko'zlaridagi quvonch yoshlari muqaddas makonda jonajon yurtimizdan borgan ziyoratchilarga munosib sharoitlar yaratilganligini ko'rsatib turibdi.

Ziyoratchilarimiz yaratilgan sharoitlar uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirib, yurtimiz ravnaqi va tinchligi, xalqimiz farovonligi uchun muqaddas ziyoratgohda ko'plab duolar qilganliklarini mamnuniyat bilan izhor etishdi.

2024-07-04 09:58:33